

MUSIQA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Sharipova Intizor

UrDPI Filologiya va san'at fakulteti

Musiqqa ta'limi yo'nalishi o'quvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida musiqa ta'limini rivojlantirish hamda sohada samaradorlikka erishishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va interfaol metodlarning ahamiyati va o'rni yoritilgan.

Kalit so'zlar: informatika, axborot, interfaol metodlar, musiqa ta'limi, musiqa notalarini yozish, dastur.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

2019-yilning 19-mart kuni Prezidentimiz boshchiligida o'tkazilgan yoshlarimizga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus" da belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, musiqa fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Ta'lim jarayoni - o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga, yagona interaktiv ta'lim axborot makonini yaratishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Musiqiy kompyuter texnologiyalari musiqiy mahsulotlarni texnik qayta ishlab chiqarishda mutlaqo yangi bosqichni ochdi: notada, amaliy musiqa janrlarida, ovoz yozish vositalarida, ovozni qayta ishlab chiqaruvchi uskunalarning sifat imkoniyatlarida, teatr va kontsert faoliyatida, ovozda. dizayn va musiqa eshittirish v.h. Bugungi kunda musiqa ta'limi jarayoniga yangi innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir.

Musiqa darslarini o'qitish nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda musiqa fanini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar, zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar beriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda musiqa fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish usullari, musiqa fani darsiga qo'yilgan zamonaviy talablar o'rgatiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so'rovlar, test so'rovlari, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish va boshqa interaktiv ta'lim usullari nazarda tutiladi.

Musiqa madaniyati fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri interfaol metodlardir, u musiqa madaniyati fani o'qituvchilariga ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi. Maktab ta'limida musiqa san'ati darslarini olib borish amaliyoti jarayonida bir necha xususiy, ya'ni musiqa san'atini o'qitishga xos bo'lgan metodlar yuzaga keldi. Shulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz.

KONTRAST (TAFOVUT)-TAQQOSLASH METODI

Akademik B.Asafyev tomonidan taklif etilgan va musiqani idrok etish malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Badiiy-pedagogik tahlil jarayonida o'qituvchi qo'ygan vazifalarga javob berish uchun o'quvchilar musiqiy obrazning o'zgarishi va rivojlanishini kuzatishlari, o'zlarining taassurotlarini anglashlari va xulosalar qila olishlarini taqozo etadi.

Musiqiy tajribasi kam bo'lgan o'quvchilar uchun tafovutli (kontrast) asarlarni taqqoslash orqali ijrochilik uslublarini o'zlashtirgan holda, asarlar to'g'risida mantiqiy tafakkurga ega bo'ladi.

«MUSIQIY TASAVVURNI BUZISH» METODI.

Musiqaga emotsional ta'sirchanlikni, musiqa «nutqi» elementlarining ifodaviyligi haqidagi tasavvurni shakllantirishi metodidan boshqacha yo'l bilan ham foydalanish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan asarning ma'lum bir ifoda vositasi yoki ijro shtrixlarini o'zgartirgan holda ijro etadi va o'quvchilarga musiqaning xarakteri o'zgargan yoki o'zgarmaganligini aniqlashni taklif etadi. Vazifani hal etilishi jarayonida o'quvchilar musiqa ifoda vositalari va shtrixlarning ahamiyatini to'laroq tushunadilar, asarlarni yanada diqqat bilan tinglashga harakat qiladilar.

QIYOSIY TAHLIL. Musiqiy tajriba orttirish natijasida o'quvchilar katta, yirik janrlardagi asarlarni **qiyosiy tahlil** qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xususan, turk, ozarbayjon, tojik va afg'on xalqlari musiqasi namunalari bilan tanishadilar va qiyosiy tahlil jarayonida ularda o'zbek musiqasiga ko'p jihatdan «maqom» janri orqali, musiqa ladlari, usullar, nola va bezaklarda, cholg'ularda umumiylik mavjud ekanligini bilib oladilar. Taqqoslash, qiyoslash metodlari vokal-xor ishlarida, musiqa savodxonligini o'zlashtirishda ham yaxshi samara beradi.

EMOTSIONAL TA'SIR ETISH METODI – o'qituvchining musiqiy asarga obrazli so'z, mimika, jestlar orqali o'z munosabatini ko'rsata olishida namoyon bo'ladi. Asar kayfiyati, xarakteriga mos ravishda uning ovozi hissiy «turlanadi». Bunday ifodaviy usullarni o'qituvchi musiqaning emosional ta'sirini kuchaytirish va o'quvchilar taassurotini boyitish uchun qo'llaydi.

Musiqiy ta'lim-tarbiya metodlarining turlicha ekanligi musiqa san'atining o'ziga xosligi hamda o'quvchilar musiqiy faoliyatining xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bu metodlarning har biri alohida qo'llanmasdan, balki bir-biri bilan bog'liq holda, bir-birini to'ldirgan holda uzviy amalga oshiriladi.

Shunday qilib, musiqa darsining maqsadiga ko'ra belgilangan vazifalarni amalga oshirishda eng muqobil metodlarni tanlashi, bir asar ustida har gal yangicha shaklda ishlashi, darsda nafaqat faol o'quvchilarni, balki passiv o'quvchilarni ham ishga jalb eta olishi, o'qituvchi va o'quvchilar hamkorligi holatini yuzaga keltirish - musiqa o'qituvchisining ijodkorligini, mahoratini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
2. Namozova Dilorom, & Astanova Zumradxon Tohirovna (2022). BRAYL NOTA TIZIMINING MUSIQA TA'LIMIDAGI ILK QADAMLARI. *Science and innovation*, 1 (C2), 36-38. doi: 10.5281/zenodo.656980
3. Madina Nasretdinova, Ismoil Rustamov, & Oybek Karimov (2022). MUSIQA SAN'ATINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI. *Scientific progress*, 3 (2), 841-845.